

AHMAD ZAKIY VALIDIY ASARLARIDA BITILGAN FARG‘ONA VODIYSI

A.Jo‘liboyev, Z.Mirzaliyeva

QDU Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada turkiy xalqlar milliy ozodlik harakatining yetakchilaridan biri, sharqshunos va turkshunos olim, falsafa doktori (1935-yil), harbiy–siyosiy arbob, Turkiston o‘lkasi musulmon sho‘rosi bosh kotibi, O‘lka xalqlari muxtoriyat harakatida faol ishtirok etib, turkiy elatlarning birligi va mustaqilligi g‘oyasini izchil himoya qilgan shaxs Ahmad Zakiy Validiyning Farg‘ona haqida xotiralari bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: Zakiy Validiy, xotiralar, Turkiston, asarlar, Rossiya, Farg‘ona, poytaxt, arxeologiya.

Аннотация: В этой статье освещаются вопросы жизни и деятельности один из лидеров национально-освободительного движения тюркских народов, востоковед и тюрколог, доктор философских наук (1935), военно-политический деятель, генеральный секретарь Мусульманского совета Туркестанская область и активный участник движения за независимость народов региона, единение и независимость тюркских народов. Представлены воспоминания Ахмада Заки Валиди, последовательно отстаивавшего свою идею, о Фергане.

Ключевые слова: Заки Валиди, воспоминания, Туркестан, труды, Россия, Фергана, столица, археология.

Annotation: This article highlights the life and work of one of the leaders of the national liberation movement of the Turkic peoples, orientalist and Turkologist, Doctor of Philosophy (1935), military-political figure, Secretary General of the Muslim Council Turkestan region and an active participant in the movement for the independence of the peoples of the region, the unity and independence of the Turkic peoples. The memoirs of Ahmad Zaki Validi, who consistently defended his idea, about Fergana are presented.

Key words: Zaki Validi, memoirs, Turkestan, works, Russia, Fergana, capital, archeology.

Ahmad Zakiy Validiy Qozon shahri Qosimiya madrasasida tahsil ko‘rgan (1908-12 yillar), shu yerda turkiy xalqlar tarixi va adabiyotidan dars bergan (1910-13 yillar). U “Turk va tatar tarixi” (1912-yil Qozon shahri) kitobi bilan mashhur bo‘lgan. Qozon universiteti Tarix, Arxeologiya va etnologiya jamiyati yo‘llanmasi bilan Sharq qo‘lyozmalarini o‘rganish uchun Farg‘ona vodiysida (1913 – yil), Rossiya FA Markaziy Osiyo va Uzoq Sharqni tadqiq etish xalqaro jamiyati yo‘llanmasi bilan Buxoro amirligida (1914 – yil) yashadi. Turkiston va Volgabo‘yi turkiy xalqlari tarixi, turmush tarzi va madaniyati ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib bordi. Turkistonga

kelib Behbudiy, Munavvarqori, Cho'lpon, Mustafo Cho'qay, Nazir To'raqulov va boshqa davlat arboblari bilan tanishdi. Sankt-Peterburgda davlat dumasi musulmon fraksiyasi a'zosi etib saylandi. 1917-yil aprelda Toshkentga kelib o'lkadagi siyosiy jarayonlarda faol qatnashdi. Butun Turkiston musulmonlari I qurultoyida (1917-yil 16-23-aprel) tuzilgan Turkiston o'lkasi musulmon sho'rosi bosh kotibi, va uning nashri hisoblangan "Kengash" gazetasida bosh muharrir bo'lib ham ishlaydi. Zakiy Validiyning asarlari Turkistonning XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari tarixi, madaniy hayotini o'rganishda muhim o'rin egallaydi. 1913-yil kuzidan 1914-yil bahorigacha davom etgan Zakiy Validiyning birinchi ilmiy safari Toshkent, Farg'ona vodiysida bo'ldi. Uning ta'kidlashicha, bu ilmiy safarga mashhur turkolog, Qozon universiteti professori Nikolay Katanov tomonidan qo'llab-quvvatlanib, katta tashabbus bildirgan [1. B. 110]. Boshqa ilmiy ekspeditsiyalarga yuklatilgan vazifalar qatori Zakiy Validiyga ham sobiq Qo'qon xonligi hududlari hisoblanmish Toshkent va Farg'ona vodiysida nodir qo'lyozma asarlarni aniqlash, ularni universitet yoki Imperatorlik kutubxonasi hisobiga xarid qilish vazifalari yuklatilgan edi.

Toshkentga kelgan Zakiy Validiy Shayx Xovandi To'hir ijodiga oid shu kungacha noma'lum bo'lgan mufassal manqib aniqlaydi. Keyingi manzil xonlik poxtaxti, boy madaniy-ma'rifiy me'rosiga ega bo'lgan Qo'qon shahri edi. Zakiy Validiy o'zining Turkiston safari to'g'risida Imperatorlik rus arxeologiya jamiyatiga qilgan hisobotida vodiyning Qo'qon, Andijon, Namangan, Marg'ilon shaharlaridagi kutubxonalarda ko'rgan qo'lyozma asarlari haqida batafsil ma'lumot beradi. Xususan, Qo'qon shahrida dastlab Yunusjon hoji Dadamuhammad o'g'lining shaxsiy kutubxonasida bo'lib, ilmiy hisobotida o'zi tanishgan qo'lyozmalardan 23 tasi haqida ma'lumot beradi [2. B. 306]. Ushbu asarlar orasida Zayniddin Vosifiyning "Badoe' ul-vaqoe", Mirzo Sang Muhammad Badaxshiyning "Tarixi Badaxshon", *Mizo Olim Mushrifning "Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin"*, Mulla Ali Qori Qunduziyning "Tavorixi Manzuma", Muhammad Hakimxon To'raning "Muntaxab ut-tavorix"ining qo'lyozmasi alohida ajralib turadi. Yunusjon hojidan so'ng Qo'qonda Yoqubhoji Yahyoxon o'g'li xonadonida tanishgan asarlaridan 3 ta qo'lyozma, Isaxon to'radan 2 ta, Abdusalomboy Muhammadjonov kutubxonasidan ham 3 ta qo'lyozmani o'z hisobotida keltiradi [2. B. 306]. Ahmad Zakiy Validiy Farg'ona vodiysiga safarida davomida tanishgan qo'lyozmalari haqida rus arxeologiya jamiyatiga hisobot taqdim qilish bilan birga Qozon shahridagi "Umid" matbaasida 1914-yil "Lutfiy ham oning devoni", 1915-yil "Xudoyorxonning so'ngg'i kunlari" nomli risola chop ettiradi. "Xudoyorxonning so'ngg'i kunlari" risolasi ilmiy safari davomida ko'rgan tarixiy asarlari, xalq xotirasida qolgan esdaliklar asosida yozilgan bo'lib, unda asosan Xudoyorxonning taxtdan chetlashishidan to vafotiga qadar bo'lgan voqealar bayon qilinadi. Risola ommaviy uslubda yozilgan, ayrim o'rinlarida ilmiy-tarixiy tahrir talab o'rinlari ham mavjud.

Ahmad Zakiy Validiy Qo‘qondan tashqari Andijonda qozi Otabek, O‘shda Quadratulla Toirboev, Namanganda Is‘hoqxonto‘ra Ibrat va Yusufxonto‘ra, Marg‘ilonda Ibrohimxo‘ja Muhammadxo‘ja o‘g‘li xonadonida bo‘lib, ularning qo‘lyozmalarga boy kutubxonasi bilan tanishadi va kerakli ma‘lumotlar yig‘adi. Ayniqsa, Marg‘ilonda XVIII asrga tegishli ko‘plab vaqf va boshqa tarixiy hujjatlar bilan tanishib, bu haqda Turkiston arxeologiya havaskorlari to‘garagining 1914-1915 yilgi to‘plamlarida chop qilgan hisobotlari katta manbalar haqida so‘zlaydi [3. B. 68].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Qo‘qon shahri va Farg‘ona vodiysining chorizm davridagi diniy, madaniy-ma‘rifiy hayoti, xonlik davridan qolgan boy qo‘lyozma va boshqa me‘roslarni o‘rganishda Ahmad Zakiy Validiyning ilmiy ishlari va faoliyati alohida ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Аҳмад Закий Валидий Тўғон. Хотиралар: Туркистонда мустақиллик ва озодлик учун курашлар тарихи / А.З.Валидий Тўғон. Таржимон, илмий таҳрир муаллифи ва нашрга тайёрловчи М.Абдурахмонов. Масъул муҳаррир Ҳ.Зиёев. – Т.: 2014.

2. Абдурахмонов М., А.Зоҳидий, А.З.Валидий Тўғоннинг Туркистонга илмий сафари. (1913-1914 йиллар) – Тошкент.: Фан. 1997.

3. Абдурахманов М. Научная деятельность А.З.Валидова в Туркестане – Ташкент: «Фан», 2004.